



YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA JALOLIDDIN MANGUBERDI SHAXSIYATINI O'RGANISHNING TARIXIY VA TARBIYAVIY AHAMIYATI.

Madiyor Turdiyev

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Jaloliddin Manguberdi yoki Jaloliddin Menguberdi (Jalol id-Diniya vad-Din Abu-l-Muzaffar Mankburni ibn Muhammad) so'nggi xorazmshoh haqida, uning hayot ro'li, hamda, Mangiberdi shaxsini o'rganishni Yangi O'zbekistonda ahamiyati haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar. *Xoamshoh, Chingizxon, mo'g'ullar, Otror, Manguberdi, Nishopur, A'zam Malik, Muzaffar Malik.*

Аннотация. *В данной статье пойдет речь о Джалалуддине Мангуберди или Джалалуддине Менгуберди (Джалал ид-Диния вад-Дин Абу-л-Музаффар Манкбурни ибн Мухаммад), последнем хорезмшахе, его роли в жизни, а также о важности изучения личности Мангиберди в Новом Узбекистане.*

Ключевые слова. *Хоамшах, Чингисхан, Монголы, Отрор, Мангуберди, Нишанур, Азам Малик, Музаффар Малик,*

Abstract. *In this article, Jalaluddin Manguberdi or Jalaluddin Menguberdi (Jalal id-Diniya wad-Din Abu-l-Muzaffar Mankburni ibn Muhammad), the last Khorezmshah, his role in life, and the importance of studying the personality of Mangiberdi in New Uzbekistan will go.*

Key words. *Khoamshah, Genghis Khan, Mongols, Otror, Manguberdi, Nishapur, Azam Malik, Muzaffar Malik,*

Kishilik jamiyati qaror topganidan odamzod avlod-ajdodlari kimligini, qanday hayot kechirganligini, nasl-nasabini, o'zi tug'ilib voyaga yetgan zaminni, Vatanning o'tmish tarixini bilishni istaydi. Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o'z yurti, tili, dini, madaniyati, qadriyatlarini, urf-odatlarini tarixini bilishga, o'zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda. Har qaysi mamlakat, har bir xalqning o'ziga xos bo'lgan uzoq va betakror tarixi boigani kabi ona Vatanimiz O'zbekistonning ham, o'zbek xalqining ham boy va sarmazmun tarixi mavjuddir. qadim o'tmishda Turon, Turkiston, Movarounnahr deb atalgan ona zaminimiz turli tarixiy yozma va arxeologik manbalarga ko'ra Xitoy, Hindiston, Eron, Misr, Rim kabi qadimiy va buyuk mamlakatlar qatori dunyoga mashhurdir. Vatanimiz jahon tarixining turli xalqlar, sivilizatsiyalar tutashgan eng to'lqinli, shiddatli chorrahalaridan biri bo'lib, bu zaminda mahalliy aholining fors, hind, xitoy, yunon, arab, rus xalqlari bilan ma'lum darajada aralashuvi sodir bo'lib, ularning madaniyati, tili, dini, fani, san'ati, turmush tarzi bir-biri bilan uyg'unlashib ketgan. Bugungi kunga kelib Vatanimiz O'zbekiston nafaqat sharq, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganligini butun jahon tan olmoqda. Tariximiz ildizlari necha-necha ming yilliklarga borib taqaladi. O'zbek xalqining boy va qadimiy davlatchilik tajribasi bo'lib, hozirgi O'zbekiston hududida ilk



mustaqil davlat tuzilmalari, miloddan avvalgi birinchi ming yillik boshlaridayoq paydo bo'lib, qariyb 3 ming yil mobaynida takomillashib borgan va Dunyo davlatchiligi ravnaqiga eng yuksak darajaga ko'tarilganligi butun dunyoga ma'lumdir. Bundan qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fuzalolar, olimu-ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan. Eramizgacha va undan keyingi asrlarda qurilgan murakkab suv inshootlari, shu kungacha ko'rku-fayzini, mahobatini yo'qotmagan asori-atiqalarimiz qadim-qadimdan yurtimizda dehqonchilik, hunarmandchilik madaniyati, me'morchilik va shaharsozlik yuksak bo'lganligidan dalolat beradi. Beshafqat davr sinovlaridan omon qolgan, eng qadimgi tosh yozuvlar, bitiklardan tortib, bugungi kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo'lyozma, ularda mujassam tarix, adabiyot, san'at, ahloq, falsafa, tibbiyot, matematika, fizika, kimyo, astronomiya, me'morchilik, dehqonchilikka oid o'n minglab asarlar bizning beqiyos ma'naviy boyligimiz iftixorimizdir. Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Toshkent kabi ko'hna shaharlarimiz bugungi kunda jahon miqyosidagi ziyoratgohlarga aylangan. Muqaddas zaminimiz orqali o'tgan —Buyuk Ipak yoli Sharq va G'arbdagi mamlakatlar va xalqlami bir-biri bilan bog'lab, ularning madaniy, iqtisodiy hamkorligiga xizmat qilgan.

Chingizxon Xorazmshohlar saltanatini qo'lga kiritish uchun ko'plab xiylalarni ishga solmoqda edi. Ana shunday xiylalardan biri- O'tror hokimi Inolchiqning Chingizxon yuborgan karvonni qirib tashlashi bo'ladi. Bu aslida Chingizxonning xiylasi bo'lib, u shu bahonada Xorazmshohlar ustiga yurishni boshlab yuboradi. Urush oldidan Alouddin Muhammad harbiy kengash chaqiradi va unda bir qator takliflar o'rtaga tashlanadi: barcha harbiy kuchni (600 ming kishi atrofida) bir yerga to'plab, harbiy yurishda toliqib turgan dushmanga Sirdaryo bo'yida hujum qilish; G'aznaga va xatto Hindiston tomon chekinib o'sha yerda jang olib borish. Lekin Alouddin Muhammad bunga rozi bo'lmaydi va natijada Buxoro, Samarqand, Urganch, Termiz kabi yirik hududlar qo'ldan ketadi. Undan keyin 1220-yil Buxoro, Samarqand, 1221-yili Urganch, Termiz qo'ldan ketadi. Bu orada Alouddin Muhammad plevrit kasalligidan vafot etadi. Jaloliddin taxt vorisi bo'lishiga qaramay, buvasi Turkon Xotun Qutbiddin O'zloqshohni valiahd etib tayinlaydi. Shundan so'ng, Jaloliddin va mo'g'ullar o'rtasida haqiqiy kurash boshlanadi. Jaloliddin Niso yaqinida o'zining 300ta askari bilan mo'g'ullarning 700 kishilik otryadini mag'lubiyatga uchratadi. Bu g'alaba mo'g'ullarning "afsonaviy qudrati" haqidagi mish-mishlarga chek qo'yadi. Bu orada Jaloliddinning ukalari: O'zloqshoh, Oqshoh va Rukniddin G'ursanjiylar mo'g'ullar tomonidan turli davrlarda o'ldiriladi. Yana bir ukasi G'iyosiddin Kirmon hukmdori bo'lib, Jaloliddinga Erondagi kurashlarida ancha yordam beradi. Jaloliddin esa Nishopurga kelib, mo'g'ullarga qarshi qo'shin to'plashga intiladi. Lekin mahalliy noiblar uni qo'llashmaydi va bu yerda turish xavfli bo'lgani uchun Jaloliddin G'aznaga yo'l oladi. Jaloliddin G'aznaga yetmasdan avval Hirot hokimi va qaynotasi bo'lmish Amin Malik bilan birlashadi va Qandahor qal'asini qamal qilayotgan mo'g'ullar ustiga yurish qiladi. Bu jangda Jaloliddin harbiy



ilm tarixida ilk bor “piyoda yoyandozlar”ni mo'g'ullarning otliq askarlariga qarshi qo'yadi. Uch kunlik jangdan so'ng mo'g'ullar mag'lub etiladi va Jaloliddin G'aznaga ketadi. G'aznada Jaloliddinni katta tantana bilan kutib olishadi. Bu yerda Jaloliddinning xizmatiga Sayfiddin O'g'roq al-Xalajiy, Balx hokimi A'zam Malik, afg'onlar sardori Muzaffar Malik, qarluqlar rahbari al-Hasan qarluq o'z qo'shini bilan qo'shiladi. Natijada Jaloliddinning qo'shinlari soni 90-130 ming kishiga yetadi. Bu qo'shin bilan Jaloliddin Valiyon qo'rg'onini qamal qilayotgan Tekechuk va Molgor boshchiligidagi mo'g'ul qo'shinlarini yengadi. Bu jangda mo'g'ullarning 100dan oshiq kishisi halok bo'ladi. Endi Chhingizxon Jaloliddinga qarshi Shiki Xutuxu boshchiligida qo'shin yuboradi. 1221-yilning kuzida shimoliy Afg'onistonning Lagar daryosi bo'yidagi Parvon dashtida Shiki Xutuxu qo'shiniga qarshi jang bo'ladi. Birlashgan qo'shinga Jaloliddinning o'zi rahbarlik qilib, o'ng qanotga Amin Malik, chap qanotga Sayfiddin O'g'roq boshchilik qilishadi. Jaloliddin o'zi Shiki Xutuxu qo'shini o'rtasiga bostirib kirib, uning xarbiy tartiblarini buzdi va mo'g'ul bayroqlarini otlarining oyoqlari ostida poymol qildi, lashkarboshisini esa o'z joyini tashlab qochishga majbur qildi. Parvon jangida mo'g'ullar mutlaq mag'lubiyatga uchraydi va Shiki Xutuxu Chingizxon huzuriga zo'rg'a yetib boradi. Bu g'alaba Movarounnahr va Xuroson uchun juda ahamiyatli bo'ladi. Mo'g'ullarning “ilohiy”, “yengilmas” qudrati haqidagi afsonalarga butunlay chek qo'yiladi. G'alaba ta'sirida Saraxs, Marv, Hirot va boshqa Xuroson shaharlarida mo'g'ullarga qarshi isyon boshlanadi. Buxoroda esa mahalliy aholi mo'g'ullarni siqib chiqarishga erishadi. Kuchayib borayotgan Jaloliddin katta xavf ekanligini anglagan Chingizxon Jaloliddinga qarshi katta qo'shinga o'zi rahbarlik qiladi. Parvon jangidagi o'ljani taqsimlashda Amin Malik va Sayfiddin Ag'roq o'rtasida nizo kelib chiqadi. Sayfiddin Ag'roq va boshqalar qo'shından ajralib ketgach, Jaloliddinning qo'shini sezilarli darajada kuchsizlanadi. Jaloliddin ichak kasali bilan og'riydi, lekin shu holatda ham mo'g'ullar Gardizga joylashganini bilib, u yerga yurish qiladi hamda O'rxon boshchiligidagi mo'g'ul otryadini mag'lub etadi. Keyichalik Chingizxonga qarshi oz qo'shin bilan kurashib bo'lmasligini anglab, Sind daryosi bo'yiga chekinishga qaror qiladi.

Uzoq ta'qiblardan so'ng, ikki o'rtada 1221-yil 25-noyabr, payshanba kuni Sind daryosi bo'yida uch kun davom etgan hal qiluvchi jang boshlanadi. Jaloliddin va uning qo'shini bu jangda ham juda ulkan jasorat ko'rsatadi. Faqat uchinchi kunga kelib, Chingizxon qo'shini ustunlikka erisha boshlaydi. 10 ming kishilik mo'g'ul pistirmasi Jaloliddinning qaynotasi Amin Malik qo'mondonligidagi o'ng qanotni tormor etad. Bu jangda Jaloliddinning taxminan 7-8 yoshli o'g'li Chingizxon qo'shini tomonidan o'ldiriladi. Shuningdek, bu jangda Amin malik va boshqa ko'plab sarkardalar ham halok bo'lishadi. Chingizxon Jaloliddinni tiriklayin qo'lga olishga buyruq beradi. Lekin Jaloliddin shaxsiy bahodirligi tufayli mo'g'ullar qurshovini yorib chiqib, Sind daryosi bo'yiga yetib keladi. Daryo bo'yida uni onasi Oychechak va haramidagi boshqa ayollar kutib turishar edi. Mo'g'ullar qo'lga tushishni istamagan ayollarining iltimosiga ko'ra



ularni suvga cho'ktirish haqida buyruq berishga majbur bo'ladi. Shundan so'ng, Jaloliddin oti bilan sakrab, Hindiston tomonga o'tib oladi.

Jaloliddinning jasoratiga qoyil qolgan Chingizxon o'g'illariga qarata: "Otaning faqat shunday o'g'li bo'lishi lozim. U olovli jang maydonidan o'zini qutqarib, halokatli girdobdan najot qirg'og'iga chiqdimi, undan xali ulug' ishlar va qiyomatli isyonlar keladi!" - deydi va orqasidan ta'qib etishni taqiqlaydi.

Jaloliddin dushmanlariga qarshi dovyurak qarshiliklar ko'rsatadi. 1230 yil Iroqdagi Xilot qal'asi zabt etilgach, xorazmshoh Mesopotamiya va Kichik Osiyo hukmdorlarining ittifoqi natijasidagi hujumda mag'lubiyatga uchraydi. Jaloliddin qo'shiniga yakuni zarbani Charmag'on boshchiligidagi mo'g'ullarning Ugedey lashkari yetkazadi. Jaloliddin jangda og'ir jarohatlanadi, so'ngra u Qurdiston tog'lariga yashirinishga harakat qiladi u o'sha yerda o'ldiriladi. Jaloliddin siymosi afsonaga aylanadi, unga yozuvchi Vasiliy Yanning "Mardlik qanotlarida" ertak-qissasi va boshqa asarlar bag'ishlangan. Jaloliddin Manguberdi "milliy qahramon" lardan biri. 1999 yili mamlakatimizda Jaloliddin tavalludining 800 yilligi keng nishonlangan. O'zbekistonda unga atab bir nechta haykallar o'rnatilgan, Xorazm viloyatida Jaloliddin Manguberdiga bag'ishlangan memorial majmua qurilgan. 1999 yil Jaloliddinning 800-yillik yubileyiga bag'ishlangan 25 so'mlik yubiley tangalar muomalaga kiritilgan. 2000 yilning 30 avgust kuni "Jaloliddin Manguberdi" ordeni ta'sis etilgan. Bu orden bilan mamlakat mustaqilligini, Vatan sarhadlarini, ona yurt tuprog'ini himoya qilishda hamda uni ko'z qorachig'iday asrashda yuksak harbiy mahorat, qahramonlik va jasorat namunalarini ko'rsatgan, davlatning mudofaa qudratini mustahkamlashga ulkan hissa qo'shgan qo'mondonlik tarkibiga kiruvchi harbiy xizmatchilar mukofotlanadilar. 2003 yilning 22 avgust kuni ushbu orden bilan Xorazm viloyati mukofotlangan.

Yangi O'zbekiston sharoitida Jaloliddin Manguberdi shaxsini o'rganish ham tarixiy, ham tarbiyaviy ahamiyatga ega. Tarixga e'tibor qaratsak, Jaloliddin Manguberdi O'rta Osiyo tarixida, xususan, Mo'g'ullar imperiyasi davrida ko'zga ko'ringan shaxs bo'lgan. U mohir lashkarboshi va davlat arbobi bo'lib, mintaqani mo'g'ul bosqinlaridan himoya qilishda hal qiluvchi rol o'ynagan. Uning yetakchiligi va strategik tafakkuri Markaziy Osiyo tarixi va rivojlanishiga doimiy ta'sir ko'rsatdi. Ta'lim nuqtai nazaridan Jaloliddin Manguberdini o'rganish O'zbekistonning boy tarixiy va madaniy merosi haqida tushuncha beradi. Bu odamlarga mintaqa tarixining murakkabliklarini, jumladan, turli tsivilizatsiyalar va imperiyalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tushunish imkonini beradi. Uning hayoti va erishgan yutuqlarini o'rganish orqali talabalar O'zbekiston xalqining matonat va jasoratini yanada chuqurroq tushunishlari mumkin.

Bundan tashqari, Jaloliddin Manguberdi shaxsini o'rganish yosh avlodda mardlik, yetakchilik va qat'iyat kabi muhim qadriyatlarni ilhomlantirishi va singdirishi mumkin. Uning hikoyasi O'zbekiston yoshlari uchun g'urur va g'urur manbai bo'lib, ularni o'z madaniy merosini qabul qilishga va jamiyatga ijobiy hissa qo'shishga undashi mumkin. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Jaloliddin Manguberdi shaxsini yangi O'zbekiston



sharoitida o'rganish mintaqa o'tmishiga oydinlik kiritish bilan tarixiy ahamiyatga ega bo'lsa, bugungi va kelajak avlodlarga ibrat va ilhom baxsh etish orqali tarbiyaviy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Азамат Зиё. Узбек давлатчилиги тарихи: (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар. – Т.: Шарқ, 2001.
2. Sagdullayev A. S. O'zbekiston tarixi. – Т.: VNESHINVESTPROM, 2019.
3. Содиков Х. Султон Жалолiddин Мангуберди. – Т.: ART FLEX, 2009.
4. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Sind_daryosi_bo%CA%BByidagi_jang
5. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan Tarixi. K.1. – Т.: Sharq, 2010.